

**QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH ILMiy-TADQIQOT
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMiy DARAJALAR BERUVCHI
DSc.05/13.05.2020.T.112.01 RAQAMLI ILMiy KENGASH**

**QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH ILMiy-TADQIQOT
INSTITUTI**

TOLIBAYEV ALPISBAY YERJANBAYEVICH

**BUG‘DOYDAN BO‘SHAGAN MAYDONLARGA MINIMAL ISHLOV
BERADIGAN VA TAKRORIY EKINLAR URUG‘LARINI EKADIGAN
KOMBINATSIYALASHGAN AGREGAT ISHLAB CHIQUISHNING
ILMIY-TEXNIK YECHIMLARI**

**05.07.01 – Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo‘jaligi va
melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Gulbahor – 2023

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Contents of the Doctoral (DSc) Dissertation Abstract

Tolibayev Alpisbay Yerjanbayevich

Bug‘doydan bo‘shagan maydonlarga minimal ishlov beradigan va takroriy ekinlar urug‘larini ekadigan kombinatsiyalashgan agregat ishlab chiqishning ilmiy-texnik yechimlari..... 3

Толибаев Алписбай Ержанбаевич

Научно-технические решения разработки комбинированного агрегата для минимальной обработки на освобожденных полях от пшеницы и сева повторных культур..... 25

Tolibaev Alpisbay Erjanbaevich

Scientific and technical solutions for the development of a combined unit for minimal tillage on fields freed from wheat and sowing of re-crops..... 47

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 51

**QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH ILMYIY-TADQIQOT
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMYIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 05/13.05.2020.T.112.01 RAQAMLI ILMYIY KENGASH**

**QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH ILMYIY-TADQIQOT
INSTITUTI**

TOLIBAYEV ALPISBAY YERJANBAYEVICH

**BUG‘DOYDAN BO‘SHAGAN MAYDONLARGA MINIMAL ISHLOV
BERADIGAN VA TAKRORIY EKINLAR URUG‘LARINI EKADIGAN
KOMBINATSIYALASHGAN AGREGAT ISHLAB CHIQISHNING ILMYIY-
TEXNIK YECHIMLARI**

**05.07.01 – Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya
ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Gulbahor – 2023

Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.DSc/T550 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi www.uzmei.uz va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Toshboltayev Maxamad Tojaliyevich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Auezov Ongarbay Pirleshovich
texnika fanlari doktori, professor

Xudayarov Berdirasul Mirzayevich
texnika fanlari doktori, professor

Turdaliyev Voxidjon Maxsudovich
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

«BMKB-Agromash» AJ

Dissertatsiya himoyasi Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi DSc.05/13.05.2020.T.112.01 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil «17» mart soat 15⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 110801, Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani, Gulbahor shaharchasi, Samarqand ko'chasi, 41-uy. Tel.: (+99870) 601-07-04, faks: (+99870) 601-07-04, e-mail: qabulxona@uzmei.uz).

Dissertatsiya bilan Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (471 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 110801, Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani, Gulbahor shaharchasi, Samarqand ko'chasi, 41-uy. Tel.: (+99870) 601-07-04, faks: (+99870) 601-07-04, e-mail: qabulxona@uzmei.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «1» mart kuni tarqatildi.
(2023 yil «1» mart dagi № 36 raqamli reyestr bayonnomasi).



A.To'xtaqo'ziyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi o'rinbosari, t.f.d., professor

A.A.Ibragimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, t.f.d., k.i.x.

A.To'xtaqo'ziyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda urug‘larning sifatli ekilishini ta‘minlash uchun yerlarni tayyorlash hamda ekishda qo‘llaniladigan energiya-resurstejamkor, ish unumi va sifati yuqori bo‘lgan texnika vositalarini ishlab chiqish va ularning ish ko‘rsatkichlarini oshirish yetakchi o‘rinni egallamoqda. Zamonaviy qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bir qancha texnologik jarayonlarni qo‘shib bajarishni ta‘minlaydigan resurstejamkor texnologiyalar asosida ekinlar hosildorligini oshirish, tuproq unumdorligini saqlash muammolarini hal qilishni taqozo etadi. Bunda tuproqqa ishlov berish bilan birga urug‘larni aniq miqdorlarda ekish muammosi alohida ahamiyatga ega. «Dunyo bo‘yicha har yili 1,8 mlrd. gektar maydonga ishlov berilib, qishloq xo‘jaligi ekinlari yetishtirilishini»¹ inobatga olsak, yerlarni ekishga tayyorlash va ekishda energiya-resurstejamkor, ish sifati va unumi yuqori bo‘lgan hamda agregatning bir o‘tishida tuproqqa bir yo‘la minimal ishlov berish va ekish texnologik jarayonlarini qo‘shib bajaradigan kombinatsiyalashgan agregatlarni ishlab chiqish zarurati paydo bo‘lmoqda. Shu jihatdan bug‘doydan bo‘shagan maydonlarga agregatning bir o‘tishida tuproqqa minimal ishlov berish va takroriy ekinlar urug‘larini ekish texnologik jarayonlarini qo‘shib bajaradigan kombinatsiyalashgan agregatlarni ishlab chiqishga katta e‘tibor qaratilmoqda.

Jahonda takroriy ekinlarni yetishtirish uchun energiya-resurstejamkor texnologiyalar va texnika vositalarning yangi ilmiy-texnik asoslarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan agregatning bir o‘tishida tuproqqa minimal ishlov beradigan va takroriy ekinlar urug‘larini aniq ekadigan texnika vositalari ish organlarining tuproq bilan o‘zaro ta‘sirlashish jarayonida ish sifati va resurstejamkorlikni ta‘minlaydigan kombinatsiyalashgan agregatlarni ishlab chiqish muhim vazifalardan hisoblanadi. Respublikamizda qishloq xo‘jaligini isloh qilish, resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni zamonaviy texnikalar bilan ta‘minlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan agregatning bir o‘tishida tuproqqa minimal ishlov beradigan va biryo‘la takroriy ekinlar urug‘larini ekadigan texnika vositalarini ishlab chiqish va ular ish organlarining tuproq bilan o‘zaro ta‘sirlashish jarayonida ish sifati va energiya-resurstejamkorlikni ta‘minlaydigan parametrlarini asoslashga doir ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Respublikamiz qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida resurslarni tejash, mehnat va energiya sarfini kamaytirish, qishloq xo‘jaligi ekinlarini ilg‘or texnologiyalar asosida yetishtirish va yuqori unumli qishloq xo‘jaligi mashinalarini ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasida, jumladan, «...fermer xo‘jaliklarida mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratishga qaratilgan tarmoq dasturlarini ishlab chiqish orqali davlat xarajatlari samaradorligini oshirish va

¹ <https://komyza.com/zemlya-klyuchevoji-resurs-agrarnom-budushh>

bosqichma-bosqich qayta taqsimlash, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish»² vazifalari belgilab berilgan. Quyilgan ustuvor vazifalardan kelib chiqib, agregatning bir o'tishida pushta tepasiga minimal ishlov berish bilan birga takroriy ekinlar urug'larini aniq miqdorlarda ekishni amalga oshiradigan kombinatsiyalashgan agregat ishlab chiqish va ishchi qismlarining talablar darajasidagi ish sifatini kam energiya sarflagan holda ta'minlaydigan parametrlarini asoslash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi PF-5853-son «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni va 2019 yil 31 iyuldagi PQ-4410-son «Qishloq xo'jaligi mashinasozligini jadal rivojlantirish, agrar sektorni qishloq xo'jaligi texnikalari bilan ta'minlashni davlat tomonidan qo'llab quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurstejamkorlik» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi.

Takroriy ekinlar (soya, mosh, makkajo'xori) urug'larini ekish texnologiyalari va texnika vositalarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, University of Tennessee (AQSH), Transactions of the Chinese Society of Agricultural Engineering, Lanzhou Jiaotong University, China Agricultural University, China Jiangxi Agricultural University (Pekin, Xitoy), Department of Agricultural, Forestry and Transport Machines, University of Life Sciences in Lublin (Polsha), Institute for Agricultural and Fisheries Research (Belgiya), Ege University (Turkiya), L'Institut polytechnique UniLaSalle, Institut national supérieur des sciences agronomiques, de l'alimentation et de l'environnement, University de Bourgogne (Fransiya), Isfahan University of Technology, Indian Agricultural Research Institute, Indian Central Institute of Agricultural Engineering (Hindiston), Murdoch University Research Repository (Avstraliya), Butunrossiya mexanizatsiya instituti, Azov-Chernomorsk davlat agromuhandislik akademiyasi, Orenburg davlat agrar universiteti (Rossiya Federatsiyasi), S.Seyfullin nomidagi Qozog'iston agrotexnika universiteti, Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti, Toshkent davlat agrar universiteti, Samarqand veterinariya meditsinasi instituti, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti (O'zbekiston) tomonidan keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Dunyo miqyosida chopiq ekinlari urug'larini ekadigan pnevmatik seyalka va tuproqqa minimal ishlov beradigan

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5853-son Farmoni

kombinatsiyalashgan agregatlarni ishlab chiqarish bo'yicha Sase, John Deere (USA), Nardi, Gaspardo (Italia), Amazone, Claas (Germany), Kuhn (France) va boshqa bir qator firmalar yetakchi o'rinni egallaydi.

Yuqorida keltirilgan dalalarni chopiq ekinlari urug'larini ekish uchun tuproqni tayyorlash va ekish bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy natijalar olingan: urug' ekish bilan birga o'g'it solib ketadigan texnika vositalari hamda tekis dalaga urug'larni to'g'ridan-to'g'ri ekadigan mexanik seyalkalar ishlab chiqilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Urug'larni minimal ekish texnologiyalari va texnika vositalarini ishlab chiqish, kombinatsiyalashgan agregatlar konstruksiyasi va parametrlarini takomillashtirish bo'yicha xorijda J.B.Wilkerson, J.H.Hancock, X.Cheng, C.Lu, Z.Meng, J.Yu, N.Jin, Z.Zhiqiang, L.Hongwen, W.Qingjie, S.H.Yasir, Q.Liao, J.Yu, D.He, J.Kowalczyk, J.Zarajczyk, J.Tatarczak, I.Niedziółka, M.Szmigielski, K.Zarajczyk, D.Foqué, W.Devarrewaere, P.Verboven, D.Nuytens, A.Yazgi, A.Degirmencioglu, A.Yatskul, J.-P.Lemiere, H.Singh, H.L.Kushwaha, D.Mishra, M.P.Balandin, A.Y.Nesmiyan, V.I.Xijnyak, V.V.Doljnikov, A.V.Yakovets, D.YE.Shapovalov, V.M.Boykov, S.V.Starsev, I.L.Vorotnikov, M.A.Aduov, S.A.Nukusheva, E.Z.Kaspakov, K.G.Isenov, K.Volodya, T.K.Tulegenov, O'zbekistonda M.T.Toshboltayev, A.Qoraxonov, To'xtaqo'ziyev A., S.P.Chirsov, P.K.Yushin, A.A.Abduraxmanov, I.T.Ergashev, X.Kirgizov, F.Alimova, Q.Kunduzov, A.A.Ibragimov va boshqalar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan.

Bu tadqiqotlarda urug'larni ekish uchun kombinatsiyalashgan agregatlarning konstruksiyalari, ularning ish organlarini takomillashtirish va parametrlarini asoslash, ularga ta'sir qiladigan kuchlarni nazariy va tajribaviy usullar orqali aniqlash bo'yicha ilmiy natijalar olingan.

Yurtimiz olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar natijasida pnevmatik ekish apparati yordamida tuksiz chigit, yeryong'oq va kunjut urug'larini ekadigan mashinalarning tajriba nusxalari yaratilgan. Lekin kam xarajatlar bilan yuqori hosil olish uchun pushta tepasiga minimal ishlov berib, bir yo'la takroriy ekinlar urug'larini aniq miqdorlarda ekish texnologik jarayonlarining kompleks yechimlari hamda ularni amalga oshiradigan kombinatsiyalashgan agregatlarni ishlab chiqish muammosi yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan QXA-3-010 "Qishloq xo'jalik ekinlarini pushta hamda egatlarda yetishtirishning energiya-resurs-suvtejamkor texnologiyasi va uni amalga oshiruvchi kombinatsiyalashgan agregat konstruksiyasini ishlab chiqish" (2012-2014) mavzusidagi amaliy va QXI-2-006-2015 "Minimal ishlov berish yo'li bilan takroriy ekinlarni yetishtirishga mo'ljallangan energiya-resurstejamkor kombinatsiyalashgan agregatning tajriba nusxalarini tayyorlash va joriy etish" (2015-2016) mavzusidagi innovatsiya loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Takroriy ekinlar urug'larini aniq miqdorlarda ekishda

ish sifati va unumini oshirish hamda energiya-resurstejamkorlikni ta'minlash uchun bir o'tishda pushtaning tepa qismiga yo'l-yo'l ishlov berish va urug'larni aniq miqdorlarda uyalab va punktir usulda ekishni amalga oshiradigan kombinatsiyalashgan agregat ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

respublikamiz va xorijda takroriy ekinlarni yetishtirish uchun tuproqning yuza qatlamiga mayin ishlov berish va urug'larni aniq ekish tadbirlarini qo'shib bajaradigan texnologiya va texnika vositalariga oid ma'lumotlar hamda shu yo'nalishda ilgari bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini tahlil etish;

tuproqning yuza qatlamiga mayin ishlov berish va urug'larni aniq ekish uchun ishlab chiqiladigan kombinatsiyalashgan agregatning ishlash sharoitlarini o'rganish va unga qo'yiladigan agrotexnika talablarini hamda ular asosida kombinatsiyalashgan agregatning konstruktiv sxemasi va texnologik ish jarayonini tadqiq qilish;

ishlab chiqilgan kombinatsiyalashgan agregatning tuproqqa ishlov beradigan ish organlarining turlari, parametrlari, joylashtirish sxemalarini asoslash bo'yicha nazariy va eksperimental tadqiqotlar o'tkazish;

ishlab chiqilgan kombinatsiyalashgan agregat ekish apparatining parametrlarini va ish rejimlarini asoslash bo'yicha nazariy va eksperimental tadqiqotlar o'tkazish;

o'tkazilgan tadqiqotlar asosida kombinatsiyalashgan agregatning tajriba nusxalarini tayyorlash va ularning xo'jalik sinovlarini o'tkazish hamda iqtisodiy ko'rsatkichlarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti. Pushtaning tepasiga ishlov beradigan va takroriy ekinlar urug'larini aniq ekadigan kombinatsiyalashgan agregat, uning ish organlari hamda ular bajaradigan texnologik jarayonlar olingan.

Tadqiqotning predmeti. Kombinatsiyalashgan agregatning pushta tepasiga ishlov beradigan ish organlari va ekish apparatining parametrlari, yassi disk, o'qyoysimon panja, tekislagich va rotatsion ish organlarining tuproq bilan o'zaro ta'sirlashishi hamda takroriy ekinlar urug'larini punktir va uyalab ekish usullarining texnologik jarayonlarini ifodalovchi matematik modellar, agrotexnik va energetik ish ko'rsatkichlarining ularning geometrik va konstruktiv parametrlari hamda harakat tezligiga bog'liq ravishda o'zgarish qonuniyatlaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida oliy matematika, nazariy mexanikaning asosiy qonunlari, matematik rejalashtirish va tenzometriya usullari qo'llanilib va mavjud meyoriy hujjatlardan (GOST 20915-2011, O'zDSt 3193:2017, O'zDSt 3090:2016, GOST 31345-2017 va GOST 23730-88) foydalanib o'tkazilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kombinatsiyalashgan agregatning konstruktiv sxemasi pushta tepa qismini mayin qilib tayyorlanishi keyin urug'larni aniq ekilishi hisobga olinib ishlab chiqilgan;

kombinatsiyalashgan agregat yassi diski, o'qyoysimon panjasi, tekislagichi va rotatsion yumshatkichlari parametrlarining o'zgarish chegaralari ularning tuproq bilan o'zaro ta'sirlashish jarayonlarini ifodalovchi analitik bog'lanishlar asosida aniqlangan;

kombinatsiyalashgan agregat pushta tepasiga ishlov beradigan va ekish seksiyalarining agrotexnik va energetik ko'rsatkichlari ularning tuproqqa ishlov berish va ekish sifatiga ta'sirini baholovchi mos regressiya tenglamalarini birgalikda yechish orqali aniqlangan;

ekish diskining konstruktiv parametrlari va ish rejimlari hamda undagi so'ruvchi teshiklarning joylashish sxemasi urug'larning fizik-mexanik xossalari va o'lcham-massaviy tavsiflarini hisobga olgan holda asoslangan;

agregatning harakat tezligi, ekish diskining so'ruvchi teshiklari markazlari bo'yicha diametrlari, ularning o'zaro joylashishi, urug'larning tushish burchaklari va teshiklar qadamlari ekish aniqligi, urug'lar orasidagi masofa va sifatli uyalar hosil bo'lishini hisobga olgan holda aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

pushtaning tepa qismiga mayin ishlov berish va aniq ekishni amalga oshirish uchun kombinatsiyalashgan agregatning konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

kombinatsiyalashgan agregat fermer xo'jaliklarida qo'llanilganda yonilg'i va boshqa xarajatlarning kamayishi hamda ish unumining ortishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi o'tkazilgan nazariy tadqiqotlar amaliy mexanika va oliy matematikaning fundamental qonun va qoidalariga asoslanganligi, tajribaviy tadqiqotlarni o'tkazishda samarali usul va vositalar qo'llanilganligi, ularda olingan natijalarning bir-biriga mosligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalar vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi, bajarilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan pushtaning tepasini mayin qilib tayyorlab, aniq ekishni amalga oshiradigan kombinatsiyalashgan agregatning sinovlari natijalari bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati taklif etilgan matematik modellar va analitik bog'lanishlar pushtaning tepa qismiga mayin ishlov berib, takroriy ekinlar urug'larini aniq miqdorlarda ekishni amalga oshiradigan kombinatsiyalashgan agregatning konstruksiyasini ishlab chiqish va ish organlarining parametrlarini aniqlashga asos bo'lgani hamda ulardan boshqa shunga o'xshash mashinalar parametrlarini asoslashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan kombinatsiyalashgan agregat qo'llanilganda texnologik jarayonning sifatli bajarilishi ta'minlanishi, yonilg'i, moddiy xarajatlar hamda mehnat sarfining takroriy ekinlar urug'larini ekish bo'yicha mavjud texnologiyaga nisbatan 45 foizgacha kamayishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bug'doydan bo'shagan maydonlarga minimal ishlov beradigan va takroriy ekinlar urug'larini ekadigan kombinatsiyalashgan agregat ishlab chiqishning ilmiy-texnik yechimlari bo'yicha olingan natijalar asosida:

Kombinatsiyalashgan agregatga dastlabki talablar va texnik topshiriq ishlab chiqilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2022 yil 3 avgustdagi 07/24-04/5227-son ma'lumotnomasi). Natijada "Agregat zavodi" AJda pushta tepasiga minimal ishlov berib, takroriy ekinlar urug'ini aniq miqdorlarda ekadigan kombinatsiyalashgan

agregatning tajriba nusxasi tayyorlangan va uning sinovlari o'tkazilgan.

Ishlab chiqilgan kombinatsiyalashgan agregatning tajriba nusxasi 2015-2020 yillarda Toshkent viloyati, Yangiyo'l va Quyichirchiq tumanlari fermer xo'jaliklari, institut tajriba xo'jaligi dalalarida hamda Qishloq xo'jaligi texnikasi va texnologiyalarini sertifikatsiyalash va sinash markazida keng xo'jalik sinovlaridan o'tgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2022 yil 3 avgustdagi 07/24-04/5227-son ma'lumotnomasi). Natijada takroriy ekinlarni ekishda mehnat sarfi 45 foizga va har bir gektar maydonga sarflanadigan ekspluatatsiya xarajatlari 16,7 foizga kamaygan.

Kombinatsiyalashgan agregatning sanoat nusxalarini ishlab chiqish va tayyorlash uchun uning loyiha-konstruktorlik hujjatlari (dastlabki talablar, texnik topshiriq va chizmalar) «BMKB-Agromash» AJda loyihalash jarayoniga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2022 yil 3 avgustdagi 07/24-04/5227-son ma'lumotnomasi). Natijada asoslangan parametrlarga ega bo'lgan kombinatsiyalashgan agregatni sanoat usulida ishlab chiqarish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 25 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, jumladan, 8 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan hamda O'zbekiston Respublikasining 3 ta foydali modelga patenti olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, oltita bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 196 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obykti va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyasi taraqqiyotining ustuvor yo'nalishiga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchligi asoslangan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, ishning aprobatsiya natijalari, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Muammoning qo'yilishi va tadqiqot vazifalari**» deb nomlangan birinchi bobida dalalarni takroriy ekinlar urug'larini ekishga tayyorlashning hozirgi holati, bir o'tishda dalani ekishga tayyorlaydigan va urug' ekadigan mavjud kombinatsiyalashgan agregatlar, urug'larni aniq ekadigan ekish seyalkalari konstruksiyalari, pnevmatik ekish apparatining texnologik jarayoni, pnevmatik ekish apparatlari bo'yicha o'tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishlari tahlil etilgan, pnevmatik ekish seyalkalari va apparatlarining tasnifi keltirilgan hamda tadqiqotning maqsad va vazifalari shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning «**Kombinatsiyalashgan agregatning ishlash sharoitini o'rganish va unga qo'yiladigan agrotexnik talablar va konstruktiv sxemasini**

ishlab chiqish» deb nomlangan ikkinchi bobida g'alladan bo'shagan maydonlar tuprog'ining takroriy ekin urug'larini ekish davridagi namligi, qattiqligi va zichligi, somon qalinligi, balandligi va qolgan hosil miqdori, dala pushta va egatlarining ko'ndalang profili, takroriy ekinlarning xususiyatlari va ular urug'larining fizik-mexanik xossalarini o'rganish natijalari, kombinatsiyalashgan agregatga quyiladigan dastlabki talablar hamda ishlab chiqilgan kombinatsiyalashgan agregatning konstruktiv sxemasi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Takroriy ekinlar urug'ini ekish davrida pushtadagi tuproq namligi 0-10, 10-20, 20-30 cm qatlamlarda mos ravishda 6,7-9,2; 9,6-11,0 va 14,6-16,4 % oraliqda, qattiqligi 1,06-1,33; 1,82-2,11 va 2,73-3,18 MPa, zichligi esa 1,05-1,18; 1,12-1,25 va 1,25-1,32 g/cm³ hamda dala yuzasidagi begona o'tlar va o'simlik qoldiqlari massasi 1 m² da 104,8-120,5 g oraliqda bo'lishi aniqlangan.

Tajribalarda o'rganilgan soya navlari urug'larining o'lchamlari quyidagi chegaralarda o'zgarib turishi aniqlandi: uzunligi – 7,5-7,7 mm, eni – 6,7-6,8 mm va qalinligi – 5,5-5,7 mm. Eng katta o'lchamlar Parvoz navining urug'larida, eng kichigi Nafis navining urug'larida kuzatildi. Urug'lar o'lchamlarining nisbati 1,13 dan 1,33 gacha bo'lib, shaklini oval-yassi deb hisoblash mumkin. Makkajo'xori urug'lari: uzunligi – 11,2-11,8 mm, eni – 7,8-8,2 mm va qalinligi – 4,0-4,1 mm. Eng katta urug'lar Qorasuv 350 AMV navida, eng kichigi O'zbekiston 601 YESV navida kuzatildi. Mosh urug'larining uzunligi – 4,9-5,6 mm ni, eni – 3,8-4,3 mm ni va qalinligi – 3,6-4,1 mm ni tashkil qildi. Urug'larning tabiiy qiyalik burchagi: soya urug'lari 29° dan 32° gacha, makkajo'xori urug'lari uchun 32° dan 36° gacha, mosh urug'lari uchun esa 25°-27° ni tashkil qildi. Bug'doydan bo'shagan dalalarda sug'orish egati saqlanib qolishligi tufayli davriy notekis relyef mavjud bo'lib, uning chuqurligi o'rtacha 8,8 cm ni tashkil etishi aniqlandi.

Kombinatsiyalashgan agregat 90 cm qator oralarida yetishtirilgan bug'doydan bo'shagan maydonlarga bir o'tishda pushta tepasiga ishlov berish va takroriy ekinlar urug'larini aniq miqdorlarda ekishga mo'ljallangan.

O'tkazilgan adabiyotlar tahlili va olib borilgan tadqiqotlarga asoslangan holda kombinatsiyalashgan agregatga dastlabki talablar va texnik topshiriq tuzildi va shu asosida uning konstruktiv sxemasi ishlab chiqildi (1-rasm).

Kombinatsiyalashgan agregat ikki qismdan: ya'ni pushta tepasiga ishlov beradigan oldingi va ularga takroriy ekinlar urug'larini aniq miqdorlarda ekadigan orqangi qismlardan tashkil topgan.

Agregatning oldingi, ya'ni pushta tepasiga ishlov beradigan qismi mavjud KXU-4 kultivatori asosida tayyorlangan bo'lib, uning ramasi 1 ga o'rnatilgan parallelogramm mexanizmi 2 ga uchta yassi disk 3, o'qyoysimon panja 4, tekislagich 5 va rotatsion ishchi organ 6 o'rnatilgan.


Agregatning orqangi ekish qismi pnevmatik ekish seyalkasidan iborat bo'lib, u traktorning orqa osish mexanizmiga osiladi. U soshnik 7, pnevmatik ekish apparati 8, ko'muvchi ishchi organ 9, shibbalovchi katok 10, marker 11, eksgauster 12, seyalka ramasi 13, shlang 14 va urug' bunker 15 va ularni harakatga keltiruvchi tayanch-uzatmali g'ildiraklardan tashkil topgan.

Agregat bir o'tishda pushta tepasini 8-12 cm chuqurlikda yumshatadi hamda

urug‘larni ekib ketadi.

Kombinatsiyalashgan agregatga O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining 3 ta №FAP 01629, №FAP 01808 va №FAP 01947 foydali modellariga patentlari olingan.

Dissertatsiyaning «**Kombinatsiyalashgan agregatning pushta tepasiga minimal ishlov beradigan ish organlarining turlari va parametrlarini asoslash**» deb nomlangan uchinchi bobida pushta teqa qismiga minimal ishlov beradigan ish organlarining turlarini tanlash bo‘yicha o‘tkazilgan taqqoslov sinovlarining natijalari hamda tanlab olingan ish organlarining parametrlarini asoslashga doir o‘tkazilgan nazariy va tajribaviy tadqiqotlarning natijalari keltirilgan.




- 1-kultivator ramasi; 2-parallelogramm mexanizm; 3-yassi disk; 4-o‘qyoysimon panja;
5-tekislagich; 6-rotatsion ishchi organ; 7-soshnik; 8-pnevmatik ekish apparati;
9-ko‘muvchi ishchi organ; 10-shibbalovchi katok; 11-marker; 12-eksgauster;
13-seyalka ramasi; 14-shlang; 15-urug‘ bunkeri

1-rasm. Kombinatsiyalashgan agregatning konstruktiv sxemasi

O‘tkazilgan sinovlar takroriy ekinlar urug‘larini ekish uchun budoydan bo‘shagan dalalar pushtalariga minimal ishlov berishda uchta yassi disk, o‘qyoysimon panja, tekislagich hamda rotatsion yumshatkichdan tashkil topgan ish organlaridan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligini ko‘rsatdi (2-rasmga qarang).

Ish jara7yonida uchta tekis kesuvchi disklar pushta tepasini kesadi, o‘qyoysimon panja esa uni yumshatadi, tekislagich pushta tepasida hosil bo‘lgan notekisliklarni tekislaydi va rotatsion yumshatkichlar esa yumshatilgan pushta tepasida hosil bo‘lgan kesaklarni maydalab ketadi. Yassi diskarning diametri D pushta tepasidagi o‘simlik qoldiqlari va begona o‘tlarning o‘qyoysimon panja va rotatsion yumshatkichning oldilarida uyulib qolishining oldini olish maqsadida ularni kesib



1-yassi disk; 2-o'qyoysimon panja; 3-tekislagich; 4-rotatsion yumshatkich

2-rasm. Pushta tepa qismiga minimal ishlov beradigan ishchi organlarning joylashish sxemasi

ketish yoki tuproqqa botirib yuborish shartidan, unga beriladigan tik yuklanish Q_d ular belgilangan chuqurlikka botib ishlashi shartidan, o'qyoysimon panja qanotlarining uvalash burchagi β_y tuproqning uvalash sifati yuqori, uning tortishga qarshiligi kam bo'lishligi shartidan, qanotlarining ochilish burchagi γ_y o'qyoysimon panja tig'lari tomonidan o'simlik qoldiqlari va begona o'tlar ildizlarini sirpanish rejimida kesilishi shartidan, o'qyoysimon panjaning qamrash kengligi V_y ni seyakning soshnigi o'qyoysimon panja tomonidan yumshatilgan tuproqda ishlashi lozimligini hisobga olib, uning sirpanchig'ining kengligidan katta bo'lishlik shartidan, tekislagichlarning harakat yo'nalishiga nisbatan o'rnatilish burchagi γ_T ularning ishchi sirtlari bo'ylab tuproq bo'laklari erkin sirpanishining ta'minlanish shartidan, balandligi N_T o'qyoysimon panjaning ta'siridan hosil bo'lgan notekisliklar balandligidan katta bo'lishi shartidan, o'qyoysimon panjaga nisbatan o'rnatilish balandligi N_{yT} uning ishlov berish chuqurligiga teng va qamrash kengligi V_T o'qyoysimon panja tomonidan yon tomonga surilgan tuproq to'liq qamrab olinishi shartidan, rotatsion yumshatkichning yassi disklari va pichoqlari bo'yicha diametrlari D_p ular yo'lida uchraydigan kesaklarni bosib o'tib ketishi va maydalashi shartidan, ular orasidagi ko'ndalang masofa l_d u tomonidan ishlov berilgan tuproq fraksiyalarining talab darajasidagi o'lchamlarini ta'minlash shartidan, ko'ndalang pichoqlar bilan jihozlangan disklar soni Z_k o'qyoysimon panja tomonidan ishlov berilgan zonaga to'liq ta'sir ko'rsatishi shartidan, rotatsion yumshatkichning har bir diskiga o'rnatiladigan pichoqlar soni n_p ish jarayonida ularning ishonarli aylanib ishlashi shartidan aniqlandi hamda ish organlari seksiyasining ishlov berish chuqurligi bo'yicha bir tekis yurishini tadqiq etildi va quyidagi ifodalar olindi

$$D \geq \frac{d_y [1 + \cos(\varphi_{1y} + \varphi_{2y})] + 2h}{1 - \cos(\varphi_{1y} + \varphi_{2y})}; \quad (1) \quad \varepsilon_d = 45^\circ - \frac{\varphi}{2}; \quad (2)$$

$$Q_o = n_o q_o (1 + \kappa V^2) \left\{ \delta_o R_o \left[\sqrt{2R_o h_o - h_o^2} - (R_o - h_o) \arccos \frac{R_o - h_o}{R_o} \right] + \right. \\ \left. + \frac{1 + fctg\varepsilon}{\cos\varepsilon} \left[R_o^2 - \left(R_o - \frac{b_o - \delta_o}{2} ctg\varepsilon \right)^2 \right] \left[\sqrt{\left(R_o - \frac{b_o - \delta_o}{2} ctg\varepsilon \right)^2 - (R_o - h_o)^2} - \right. \right. \\ \left. \left. - (R_o - h_o) \arccos \frac{R_o - h_o}{\left(R_o - \frac{b_o - \delta_o}{2} ctg\varepsilon \right)} \right] \right\}, \quad (3)$$

$$\beta_{\ddot{y}} = \arcsin \frac{\sqrt{\sin^2(\varphi + \rho) + \left[2 + \frac{1}{2} \cos(\varphi + \rho) \right] [1 + \cos(\varphi + \rho)] - \sin(\varphi + \rho)}}{2 + \frac{1}{2} \cos(\varphi + \rho)}; \quad (4)$$

$$\gamma_{\ddot{y}} = 45^\circ - \frac{\varphi_{\ddot{y}(6)}}{2}; \quad (5) \quad \alpha_{\ddot{y}} = \arctg(\sin\gamma_{\ddot{y}} \cdot tg\beta_{\ddot{y}}); \quad (6) \quad B_{\ddot{y}} > B_c; \quad (7)$$

$$\gamma_{\ddot{y}} = 45^\circ - \frac{\varphi}{2}; \quad (8) \quad H_T > h_H; \quad (9) \quad H_{\ddot{y}T} = h_{\ddot{y}}; \quad (10)$$

$$B_T \geq B_{\bar{e}}; \quad (11) \quad D_p \geq \frac{d_\kappa [1 + \cos(\varphi_1 + \varphi_2)] + h_p}{1 - \cos(\varphi_1 + \varphi_2)} + h_p, \quad (12) \quad l_o \leq l_\phi + B_n, \quad (13)$$

$$Z_\kappa \geq \frac{B_3}{l_o} + 1, \quad (14) \quad n_y \geq \left(1 + \frac{B_{\ddot{y}} + 2h_{\ddot{y}} ctg\psi_{\ddot{y}}}{l_\phi + B_n} \right) \frac{2\pi}{\arccos \frac{D_p - 2h_p}{D_p}}. \quad (15)$$

$$A_{\max} = \frac{\Delta R_z^n}{m_c \sqrt{\left[\frac{C_m B_m - C_n}{m_c} - (n\omega)^2 \right]^2 + \left(\frac{b_m B_m}{m_c} \right)^2 (n\omega)^2}} + \\ + \frac{(\pi V)^2 Z_o}{l_n^2 \sqrt{\left[\frac{C_m B_m + C_n}{m_c} - \left(\frac{\pi V}{l_n} \right)^2 \right]^2 + \left(\frac{b_m B_m}{m_c} \right)^2 (n\omega)^2}} \leq 0,5 \Delta h, \quad (16)$$


bunda $d_{\ddot{y}}$ – o‘simlik qoldiqlari ko‘ndalang kesimining diametri, m; $\varphi_{1\ddot{y}}$, $\varphi_{2\ddot{y}}$ – mos ravishda o‘simlik qoldiqlarining disk tig‘i va tuproqqa ishqalanish burchaklari, °; h_o – diskning tuproqqa botish chuqurligi, m; n_o – ish organlari seksiyasiga o‘rnatilgan yassi disklar soni, dona; q_o – tuproqning statik hajmiy ezilish koeffitsiyenti, N/m³; κ – proporsionallik koeffitsiyenti, s²/m²; V – harakat tezligi, m/s; d_o – yassi disk tig‘ining qalinligi, m; R_o – yassi diskning radiusi, m; f – tuproqning

yassi disklarning o'tkirlangan qismiga ishqalanish koeffisiyenti, ε_δ – yassi diskning o'tkirlanish burchagi, °; b_δ – yassi diskning qalinligi, m; δ_δ – disk tig'ining qalinligi, m; ρ – tuproqning tuproqqa ishqalanish burchagi, °; $\varphi_{\bar{y}(\sigma)}$ – o'simlik qoldiqlari va begona o't ildizlarining o'qyoysimon panjaning tig'iga ishqalanish burchagi, °; $\gamma_{\bar{y}}$ – o'qyoysimon panja qanotlarining ochilish burchagi, °; $\beta_{\bar{y}}$ – o'qyoysimon panja qanotlarining uvalash burchagi, °; $B_{\bar{y}}$ – o'qyoysimon panjaning qamrash kengligi, m; B_c – seyalka soshnigi sirpanchig'ining kengligi, m; h_n – o'qyoysimon panjaning ta'siri ostida pushta tepasida hosil bo'ladigan notekisliklar balandligi, m; $h_{\bar{y}}$ – o'qyoysimon panjaning ishlov berish (tuproqqa botish) chuqurligi, m; $B_{\bar{e}}$ – o'qyoysimon panjaning ta'siri ostida tuproqning ko'ndalang yo'nalishida yoyilish kengligi, m; d_κ – rotasion yumshatkich tomonidan ishlov beriladigan tuproq yuzasida yotgan, ya'ni uning diski va pichoqlarining yo'lida uchraydigan kesaklarning eng katta diametri, m; h_p – rotasion yumshatkichning tuproqqa botish chuqurligi, m; l_ϕ – rotasion yumshatkich tomonidan ishlov berilgandan keyingi tuproq fraksiyalarining agrotexnika talablari bo'yicha eng katta ruxsat etilgan o'lchami, m; V_n – rotasion yumshatkichdagi ko'ndalang pichoqning qamrash kengligi, m; Z_κ – rotasion yumshatkichning ko'ndalang pichoqlar bilan jihozlangan disklari soni, dona; B_z – o'qyoysimon panja tomonidan ishlov berilgan zonaning kengligi, m; $\Delta R_z^n - \Sigma R_{z(t)}$ kuch o'zgaruvchan tashkil etuvchisining amplitudasi, N; m_c – seksiyaning massasi, kg; S_T – tuproqning tayanch g'ildiragi to'g'inining bir birlik kengligiga keltirilgan bikirlik koeffisiyenti, N/m²; V_T – tayanch g'ildirak to'g'inining kengligi, m; S_n – prujinaning bikirligi, N/m; $\omega - \Delta R_z^n$ kuchning aylanma chastotasi, s⁻¹; $n = 1, 2, \dots, n_1$ – garmonikalar nomeri; b_T – tuproqning tayanch g'ildiragi to'g'inining bir birlik kengligiga keltirilgan qarshilik koeffisiyenti, N s/m²; l_n – notekisliklarning uzunligi, m.

$d_{\bar{y}} = 0,015$ m, $\varphi_{1\bar{y}} = 30^\circ$, $\varphi_{2\bar{y}} = 40^\circ$, $h_\delta = 0,08$ m, $\varphi = 30^\circ$, $n_\delta = 3$ dona, $q_0 = 15 \cdot 10^6$ N/m³, $k = 0,08$ c²/m², $\delta_\delta = 0,0005$ m, $R_\delta = 0,14$ m, $h_\delta = 0,08$ m, $f = 0,5$, $\varphi = 30^\circ$, $\rho = 40^\circ$, $\varphi_{\bar{y}(\sigma)} = 30^\circ$, $B_c = 17$ cm, $\beta_{\bar{y}} = 28^\circ$, $\gamma_{\bar{y}} = 30^\circ$, $\alpha_{\bar{y}} = 15^\circ$, $B_{\bar{y}} = 20$ cm, $i_o = 15$, $\delta_{\bar{y}} = 0,5$ mm, $\varphi = 30^\circ$, $h_n = 10$ cm, $h_{\bar{y}} = 8-10$ cm, $d_\kappa = 0,01$ m, $\varphi_1 = 30^\circ$, $\varphi_2 = 40^\circ$, $h_p = 0,06$ m, $B_{\bar{y}} = 0,2$ m, $h_{\bar{y}} = 0,08-0,10$ m, $\psi_{\bar{y}} = 60^\circ$, $l_\phi = 0,05$ m, $B_n = 0,07$ m, $q_0 = 5 \cdot 10^6$ N/m³, $K_{\bar{y}} = 0,08$ s²/m², $\delta_p = 0,005$ m, $m_c = 100$ kg, $g = 9,8$ m/s², $K_{\bar{y}} = 15 \cdot 10^3$ Pa, $h_{\bar{y}} = 0,1$ m, $\psi_o = 8^\circ$ va $\Delta h = 0,01$ m qabul qilinib, (1)-(16) ifodalar bo'yicha o'tkazilgan hisoblarda yassi disklarning diametri kamida 280 mm, o'tkirlanish burchagi 55-65°, ish organlari seksiyaning yassi disklariga beriladigan tik yuklanish 1354,1-1514,7 N, o'qyoysimon panja qanotlarining uvalash burchagi 28°, ochilish burchagi 60°, o'qyoysimon panjaning tuproqqa kirish burchagi 15°, qamrash kengligi 20 cm, tig'larining o'tkirlanish burchagi va qalinligi mos ravishda 15° va 0,25 mm, tekislagichlarning harakat yo'nalishiga nisbatan o'rnatilish burchaklari 30°, ularning balandligi kamida 10 cm, o'qyoysimon panjaga nisbatan o'rnatilish balandligi 8-10 cm, o'qyoysimon panja ta'siri ostida tuproqning ko'ndalang yo'nalishida yoyilish kengligi 30-32 cm, chetki yassi disklar orasidagi ko'ndalang masofa 20 cm, markaziy va chetki disklar orasidagi ko'ndalang masofa esa 10 cm, 1,5-2,0 m/s ish tezliklarida rotasion yumshatkichning diametri kamida

30,4 cm, uning disklari orasidagi ko'ndalang masofa 12 cm, rotasion yumshatkichdagi disklar soni 3 dona, uning har bir diskiga o'rnatiladigan pichoqlar soni 7 dona, rotasion yumshatkichning barcha disklariga o'rnatiladigan pichoqlar soni kamida 21 dona, pichoqlarning balandligi 6 cm, rotasion yumshatkichga beriladigan tik bosim kuchi 695,1 N, parallelogramm mexanizm bosim prujinasining bikirligi 8,27 kN/m bo'lishi lozimligini ko'rsatdi.


Eksperimental tadqiqotlarda tekislagichning harakat yo'nalishiga nisbatan o'rnatilish burchagi, balandligi va qamrash kengligini pushta tepa qismidagi notekisliklar balandliklarining o'rtacha kvadratik chetlanishi hamda sudrashga qarshiligiga ta'siri o'rganildi. Olingan natijalar bo'yicha (3-rasm) pushtaning tepa qismi minimal energiya sarflagan holda talab darajasida tekislanishi uchun tekislagichning harakat yo'nalishiga nisbatan o'rnatilish burchagi 30-35° oralig'ida, balandligi 8-10 cm va qamrash kengligi kamida 15 cm bo'lishi lozim.



a,v,d) $V=1,67$ m/s; b,g,z) $V=2,22$ m/s.

3-rasm. Tekislagich parametrlarini uning ish ko'rsatkichlarga ta'siri

Rotasion yumshatkich parametrlarining tuproqning uvalanish darajasi va tortishga qarshilikka ta'siri disklar soni, diskarga ko'ndalang o'rnatilgan pichoqlar balandligi hamda ish organiga beriladigan tik bosim kuchiga bog'liq ravishda o'rganildi (4-rasm) va rotasion yumshatkich disklar soni 3 dona, diskarga ko'ndalang o'rnatilgan pichoqlarning balandligi 6 cm va unga beriladigan tik bosim kuchi 400 N bo'lishi lozimligi aniqlandi.




a,b,v) $V=1,67$ m/s; g,d,z) $V=2,22$ m/s

4-rasm. Rotasion ish organi parametrlarini uning ish ko'rsatkichlarga ta'siri

Dissertasiyaning “Pnevmatik ekish apparatining parametrlari va ish rejimlarini nazariy asoslash” deb nomlangan to‘rtinchi bobida urug‘larning ekish diski so‘ruvchi teshiklariga so‘rilishi va ularni umumiy massadan olib chiqish shartlari, ekish diskining konstruktiv parametrlari va ish rejimlari, uya hosil qilish jarayonini asoslashga doir o‘tkazilgan nazariy tadqiqotlarning natijalari keltirilgan.


Pnevmatik ekish apparatining umumiy tuzilishi 5-rasmda keltirilgan. U qopqoq 1, korpus 2, tozalagich 3, vakuum kamerasi 4, havo quvuri 5, ekish diski 6, yulduzcha 7 va o‘q 8 iborat.

Urug‘larning diskga so‘rilishi va ularni umumiy massasidan olib chiqish shartlari 6 rasmda keltirilgan. Urug‘larning so‘ruvchi teshiklarga so‘rilish vaqtida R – havo oqimidagi so‘rish kuchi ta’sir qiladi. Qo‘shimcha ekish apparati qabul kamerasida urug‘ bosimi tufayli paydo bo‘ladigan o‘q bo‘ylab R_o va yon tarafdin R_{ϕ} kuchlar ta’sir qiladi. Ekish diskining parametrlari 7-rasmda keltirilgan. Ekish diskidagi teshiklar qadami l_w urug‘larning katta o‘lchamiga teng yoki undan katta bo‘lish shartidan, so‘ruvchi teshiklar diametri urug‘ning enining 0,6-0,7 qiymati oralig‘ida bo‘lishligi shartidan hamda sifatli uya hosil bo‘lishi birinchi va ikkinchi urug‘larning uyaga tushish masofalari uyaning agrotexnik talablarga mos cho‘zilganligidan kam bo‘lish shartidan aniqlandi va quyidagi ifodalar olindi.



1-qopqoq; 2-korpus; 3-tozalagich;
4-vakuum kamerasi; 5- havo quvuri;
6-ekish diski; 7-yulduzcha; 8-o'q

5-rasm. Pnevmatik ekish apparatining umumiy tuzilishi



1-ekish diski; 2-urug'

6-rasm. Urug'ning diskga so'rilishi va ularni umumiy massadan olib chiqish sxemasi

$$P = k\Delta PS; \quad (17)$$


$$P_o = \frac{1}{2} \rho g d_c h^2 \cos^2 \varepsilon; \quad (18)$$

$$P_o = \rho d_c^2 h g; \quad (19)$$

$$l_{uu} \geq l_{max}; \quad (20)$$

$$d = (0,6 \div 0,7) \cdot b_c; \quad (21)$$

$$U_0 = \frac{V_c \cdot l_{uu}}{l_c}; \quad (22)$$



1 va 2-urug'lar

7-rasm. Ekish diskining parametrlari

